

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING “MEHNATNI MUHOFAZA QILISH TO‘G‘RISIDA”GI QONUNI VA UNING QO‘LLANILISHINI TAXLIL QILISH**Qurbonova Ro‘zixon Soyibjon qizi**

Andijon mashinasozlik instituti,

www.rozixonqurbonova999@gmail.com

Tel:+998994947663

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasining mehnatni muhofaza qilish sohasidagi mavjud qonunlari hozirgi vaqtdagi bozor iqtisodiyotining zamonaviy talablariga va amalga oshirilayotgan demokratik islohotlarning chuqurlashtirish, iqtisodiyotni liberallashtirish, davlatning xususiy sherikchilikni mustahkamlash, mamlakatda mehnat qonunchiligi va tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirilishiga qaratilgan chora-tadbirlarga to‘g‘risidagi ma’lumotlar aks etadi.

Kalit so‘zlar: Mehnat muhofazasi, Vazirlar maxkamasi, qonun, mehnat sharoitlari, ish o‘rinlari, attestatsiya.

Kirish: O‘zbekiston Respublikasining “Mehnatni muhofaza qilish to‘g‘risida” Qonuni 6 may 1993 yil 6 mayda qabul qilingan bo‘lib, ushbu Qonunning maqsadi mehnatni muhofaza qilish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

Hozirgi vaqtdagi bozor iqtisodiyotining zamonaviy talablariga va amalga oshirilayotgan demokratik islohotlarning chuqurlashtirish, iqtisodiyotni liberallashtirish, davlatning xususiy sherikchilikni mustahkamlash, mamlakatda mehnat qonunchiligi va tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirilishiga qaratilgan chora-tadbirlarga mos keladigan yangi tahrirdagi Qonun bo‘lishini davr talab etdi.

Qonun loyihasini tayyorlashda mehnatni muhofaza qilish va mehnat xavfsizligi sohasidagi XMTning Konventsiya va tavsiyalari, 20 dan ziyod horijiy davlatlarning shu jumladan Yevropa Ittifoqi mamlakatlari, Yaponiya, Koreya, Rossiya, Belarus, Qozog‘iston va boshqa davlatlarning, mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha qonunchiligi va me‘yoriy hujjatlari o‘rganildi.

Shuningdek mehnat va aholini ijtimoiy himoya qilish vazirligi tomonidan ushbu qonun loyihasini tayyorlashda vazirliklarning va tarmoq idoralarining, katta sanoat korxonalarining, keng jamoatchilikning (fuqarolarning) takliflari inobatga olindi.

Qonunda mehnatni muhofaza qilish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari belgilanib, Qonunga kiritilgan normalar davlat organlari tomonidan qonun talablarini bajarishda har xil aralashuvlarni va korrupsiyani oldini olish, tadbirkorlarga qulay sharoitlar yaratish va ishlovchi xodimlarni mehnat sharoitlarini doimiy ravishda yaxshilashga hamda ularning mehnatni muhofaza qilish sohasida ijtimoiy himoyani ta‘minlashga qaratildi.

Ushbu Qonunda jamoaviy himoya vositalari, zararli ishlab chiqarish omili, ish o‘rni, ishlab chiqarish faoliyati, ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisa, kasb kasalligi, mehnat sharoitlari, mehnatni muhofaza qilish, mehnatda mayib bo‘lish, noqulay ishlab chiqarish omillari, xavfli ishlab chiqarish omili, shaxsiy himoya vositalari kabi tushunchalarga atroflicha ta‘rif berildi.

Mazkur Qonunning qabul qilinishida:

- mehnatni muhofaza qilishni respublika, tarmoq va hudud darajasida davlat organlarining vazifalari belgilandi hamda mehnatni muhofaza qilish talablarini bajarishga ish beruvchi bilan birga xodimning ham mas‘uliyati oshirilishi;

- mehnatni muhofaza qilish xizmatini tashkil etishga imkoniyatlari yetmagan kichik korxonalarda mehnatni muhofaza qilish xizmatining vazifalarini bajarish outsorsing asosida

mehnatni muhofaza qilish sohasida xizmatlar bozorining professional ishtirokchilarini (tadbirkorlarni) jalb qilinishi;

- ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar va kasb kasalliklarini oldini olish hamda kamaytirilishi tashkilotning iqtisodiy holatini o'sishiga sabab bo'ladi, ish beruvchilarning mehnat muhofaza qilishni tashkil etish maqsadida tashkilotlar tomonidan ixtiyoriy ravishda mehnatni muhofaza qilishni boshqarish tizimini audit qilish mexanizmi joriy etilishi;

- xodimlarning ayrim toifalari, ayollar, voyaga yetmagan shaxslarni va mehnat qobiliyati cheklangan shaxslar uchun mehnatni muhofaza qilish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishning o'ziga xos xususiyatlarini belgilanishi;

- mehnatni muhofaza qilish bo'yicha jamoatchilik nazoratini o'rnatishni ta'minlash yuzasidan talablar kiritildi va boshqa davlat boshqaruvi organlarining mehnatni muhofaza qilish sohasidagi vakolatlari belgilanishi nazarda tutildi;

- Bundan tashqari tashkilotlarda ish beruvchi va xodimlarning mehnatni muhofaza qilish talablarini bajarish bo'yicha mas'uliyatini oshirish, shu jumladan, ishlab chiqarishda sodir bo'lgan baxtsiz hodisalarning oldini olish choralarini ko'rish borish belgilandi.

- Qonunda mehnat sharoitlari bo'yicha ish o'rinlari attestatsiyasi, Mehnat sharoitlari davlat ekspertizasi talablari ham kiritilgan bo'lib, bu mehnat sharoitlari bo'yicha ish o'rinlari attestatsiyasini o'tkazish orqali xodimlarga zararli va (yoki) xavfli mehnat sharoitlarida ishlaganlik uchun kafolatlar hamda kompensatsiyalar berilishining to'g'riligini, xodimlarning haqiqiy mehnat sharoitlarini baholash maqsadida amalga oshirilishi belgilanib qo'yilgan.

Mehnatni muhofaza qilish to'g'risidagi qonun quyidagi soxalarda amal qilinadi:

- korxonalar, muassasalar va tashkilotlar (bundan buyon matnda tashkilotlar deb yuritiladi) bilan, shuningdek alohida yollovchilar bilan mehnat munosabatlarida bo'lgan xodimlarga;

- ishlab chiqarish amaliyotini o'tayotgan oliy ta'lim muassasalari talabalariga, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari o'quvchilariga, boshqa ta'lim muassasalari tinglovchilariga;

- tashkilotlarda ishlash uchun jalb etiladigan harbiy xizmatchilarga;

- muqobil xizmatni o'tayotgan fuqarolarga;

- sud hukmiga ko'ra jazoni o'tayotgan shaxslarga ular jazoni ijro etish muassasalari tomonidan belgilanadigan tashkilotlarda ishlashi davrida, shuningdek ma'muriy qamoqqa olish tarzidagi ma'muriy jazo qo'llanilgan shaxslarga, boshqa turdagi ishlarni bajarishga, shu jumladan jamiyat va davlat manfaatlarini ko'zlab tashkil etiladigan ishlarni bajarishga jalb etiladigan shaxslarga nisbatan tatbiq etiladi.

Mehnatni muhofaza qilishni davlat tomonidan boshqarish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, mehnatni muhofaza qilish sohasidagi maxsus vakolatli davlat organi, shuningdek mehnatni muhofaza qilish sohasida qonun hujjatlariga muvofiq ayrim vakolatlarga ega bo'lgan boshqa davlat organlari tomonidan amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining mehnatni muhofaza qilish sohasidagi vakolatlari

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi:

- mehnatni muhofaza qilish sohasida yagona davlat siyosati amalga oshirilishini ta'minlaydi;

- mehnatni muhofaza qilish sohasidagi davlat dasturlarini tasdiqlaydi va amalga oshiradi;

- davlat va xo'jalik boshqaruvi organlarining, mahalliy davlat hokimiyati organlarining mehnatni muhofaza qilish sohasidagi faoliyati muvofiqlashtirilishini ta'minlaydi;
- mehnat sharoitlarining davlat ekspertizasini o'tkazish tartibini belgilaydi;
- ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalarni va kasb kasalliklarini tekshirish hamda hisobga olish tartibini belgilaydi;
- tashkilotlarda mehnatni muhofaza qilish xizmatini tashkil etish tartibini belgilaydi;
- mehnatni muhofaza qilish uchun ish beruvchi tomonidan mablag'lar ajratish, shuningdek mehnatni muhofaza qilish jamg'armalarini tuzish va ularning mablag'laridan foydalanish tartibini belgilaydi;
- mehnatni muhofaza qilish sohasida xalqaro hamkorlikni amalga oshiradi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mukhtorjon, K., & Dilmurad, R. (2022). PROPOSALS FOR AMENDMENTS TO REGULATORY DOCUMENTS FOR HIGH-RISE BUILDINGS. *Universum: технические науки*, (6-6 (99)), 51-54.
2. Кабулова, Н. Д., Ходжакулов, М. Н., & Рахимов, Д. Б. (2021). АКТУАЛЬНОСТЬ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ПРОГРАММНОГО ОБЕСПЕЧЕНИЯ (ПОИСКОВО-ИНФОРМАЦИОННАЯ КАРТОГРАФИЧЕСКАЯ СЛУЖБА, ГЕОЛОКАЦИЯ) В ПОДРАЗДЕЛЕНИЯХ МИНИСТЕРСТВА ПО ЧРЕЗВЫЧАЙНЫМ СИТУАЦИЯМ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН. *Universum: технические науки*, (7-1 (88)), 14-17.
3. Халматов, М., & Ходжакулов, М. (2023). АТМОСФЕРА ҲАВОСИНИ ЧАНГ БИЛАН ИФЛОСЛАНИШИНИ ЎРГАНИШДА НАТИЖАЛАРНИ ТАҚҚОСЛАШ. *Евразийский журнал академических исследований*, 3(6 Part 2), 96-104.
4. Khalmatov, M., & Khodjakulov, M. (2023). SCIENTIFIC AND PRACTICAL SIGNIFICANCE OF DANGEROUS AND HARMFUL FACTORS IN THE TECHNOSPHERE. *International Bulletin of Applied Science and Technology*, 3(6), 775-781.
5. Qabulova, N., & Khalmatov, M. (2023). COMPARISON OF THE RESULTS IN THE STUDY OF ATMOSPHERIC AIR POLLUTION WITH DUST. *International Bulletin of Applied Science and Technology*, 3(6), 262-269.
6. Wildavsky, A. B. (1988). *Searching for safety* (Vol. 10). Transaction publishers.